

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610500 – Sun'iy intellekt
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610500 – Sun'iy intellekt

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: NAZAROV FAYZULLO MAXMADIYAROVICH

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: MILTIADES D. LYTRAS

National Commission for Academic Accreditation and Assessment

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260061
Xulosa raqami	1091
Xulosa sanasi	01.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy. Guvohnoma: MAS № 0000307, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sun'iy intellekt
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610500
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000307, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610500 – Sun'iy intellekt
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610500 – Artificial Intelligence
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610500 – Искусственный интеллект
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Sun'iy intellekt bo'yicha muhandis
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida belgilangan mezonlar batafsil tahlil qilinib, ularning amaldagi holati mavjud hujjatlar, ichki me'yoriy asoslar hamda amaliy faoliyat natijalari asosida o'rganildi. Aniqlangan masalalar yuzasidan mas'ul bo'linmalar va mutaxassislariga tegishli so'rovlar yuborilib, zarur izoh va tushuntirishlar olindi hamda taqdim etilgan ma'lumotlar tahlil qilindi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi, mas'ul tarkibiy tuzilma, istiqbolli rivojlantirish rejasi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Sun'iy intellekt kabi jadal rivojlanayotgan yo'nalishda ta'lim dasturining zamonaviy talablar va mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini ta'minlash maqsadida mehnat bozori monitoringini muntazam olib borish hamda dastur mazmunini davriy ravishda qayta ko'rib chiqish mexanizmlarining mavjudligi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va sifatni ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar belgilangan mezonlar talablariga mos kelishi kuzatildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida ta'lim dasturlariga oid belgilangan mezon va talablar asosida zarur hujjatlar tayyorlanib, tizimlashtirildi hamda o'rganish uchun taqdim etildi. Ta'lim dasturining mazmuni, o'quv rejalari, fan dasturlari, ta'lim natijalari va bitiruvchilarda shakllantirilishi ko'zda tutilgan kompetensiyalar amaldagi me'yoriy talablar asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Dastur Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasining 6-darajasiga muvofiq shakllantirilgani, o'quv jarayonining mazmuni belgilangan malaka talablari bilan uyg'unligi ta'minlangani kuzatildi. Sun'iy intellekt yo'nalishida nazariy bilimlarni amaliy dasturlash, algoritmlar ishlab chiqish va sun'iy intellekt modellarini yaratish ko'nikmalari bilan uzviy bog'lash muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Mazkur yondashuv bitiruvchilarga beriladigan "Sun'iy intellekt

bo'yicha muhandis" kvalifikatsiyasining mazmuni va kasbiy faoliyat talablariga mos keladi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va ta'lim natijalari belgilangan mezonlar talablariga muvofiqligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablar asosida zarur hujjatlar tayyorlanib, tartibga keltirildi hamda o'rganish uchun taqdim etildi. O'quv jarayonini tashkil etish, o'quv-uslubiy hujjatlar, ta'lim natijalarini baholash tizimi va tegishli ichki tartiblar amaldagi me'yoriy talablar asosida shakllantirilgani aniqlandi. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgani, ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlarining shaffofligi hamda xolisligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar joriy etilgani kuzatildi. Sun'iy intellekt yo'nalishida laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy topshiriqlar va loyihaviy ishlarning muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni muhim ahamiyat kasb etishi e'tirof etiladi. Shuningdek, akademik halollik tamoyillariga rioya etish bo'yicha tartib va talablar belgilangan hamda o'quv jarayonida qo'llanilishi nazarda tutilgan. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi qayd etildi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida belgilangan mezonlar asosida talabalar faoliyatiga oid hujjatlar, ichki tartiblar va amaliy jarayonlar batafsil o'rganildi. Qabul parametrlarini belgilashda professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning malakasi va ilmiy salohiyati, mavjud moddiy-texnik baza, auditoriya imkoniyatlari hamda o'quv yuklamasi tahlili asos qilib olingani aniqlandi. Bunday yondashuv qabul hajmini mavjud resurslar bilan mutanosib holda rejalashtirish, ta'lim sifati barqarorligini ta'minlash va o'quv jarayonining samaradorligini saqlashga xizmat qilishi kuzatildi. Qabul jarayonlarining shaffofligi ta'minlangani, talabalar harakatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgani hamda ularni akademik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amalda qo'llanilishi qayd etildi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha yaratilgan tizim belgilangan mezonlar talablariga mos kelishi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida belgilangan mezonlar asosida professor-o'qituvchilar va xodimlarning salohiyati, kasbiy hamda ilmiy kompetensiyalari, shuningdek, kadrlar bilan ta'minlanganlik holati tahlil qilindi. Ta'lim dasturi doirasidagi fan va modullarni sifatli

amalga oshirish uchun zarur mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgani hamda ularning son va malaka darajasi amaldagi me'yoriy talablarga muvofiqligi aniqlandi. Kadrlarni tanlash, malaka oshirish, kasbiy rivojlantirish va rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgani, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilishi kuzatildi. Sun'iy intellekt yo'nalishida professor-o'qituvchilarning zamonaviy dasturiy vositalar, ilg'or texnologiyalar va sohaviy yechimlar bilan ishlash tajribasi ta'lim jarayonining sifati hamda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman, inson resurslarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha yaratilgan tizim belgilangan mezonlar talablariga mosligi qayd etildi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida universitetning moddiy-texnik bazasi, o'quv infratuzilmasi hamda ta'lim resurslarining holati belgilangan akkreditatsiya mezonlari asosida tahlil qilindi. Ta'lim dasturlarini sifatli amalga oshirish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun zarur o'quv auditoriyalari, fan laboratoriyalari hamda axborot-resurs ta'minoti mavjudligi aniqlandi. O'quv jarayonini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgani kuzatildi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni to'liq ta'minlash nuqtai nazaridan binolar va jihozlarning moslashtirilishi, maxsus o'quv materiallari bilan ta'minlanganlik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Mazkur yo'nalish bo'yicha ayrim jihatlar belgilangan talablarni to'liq qamrab olmagan sababli 6.4-mezonni takomillashtirishga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Umuman, moddiy-texnik baza va ta'lim resurslari belgilangan mezonlar talablariga asosan mos kelishi, inklyuziv ta'lim sharoitlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi maqsadga muvofiqligi e'tirof etildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallari hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati (6.4-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.

- ✓ Sun'iy intellekt sohasi jadal yangilanishini hisobga olib, fanlar mazmunini muntazam yangilab borish talab etiladi.
- ✓ Hisoblash resurslari va laboratoriya bazasini mustahkamlash tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR


- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallarini yaratish.
- ✓ Fanlar mazmunini so'nggi ilmiy yutuqlar asosida muntazam yangilash.
- ✓ Hisoblash quvvati va ixtisoslashgan laboratoriya bazasini kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning sohaviy-texnologik salohiyatini oshirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti" davlat muassasasida 60610500 – "Sun'iy intellekt" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi, istiqbolli rivojlantirish rejasi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgani, ta'lim natijalarini baholash tizimining amaldagi talablarga mosligi kuzatildi. Professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgani, moddiy-texnik va axborot-resurs bazasi o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini berishi qayd etildi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni ta'minlashga oid 6.4-mezon bo'yicha mavjud sharoitlarni yanada takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Mazkur holat ta'lim dasturini amalga oshirishga jiddiy to'sqinlik qilmaydi hamda asosan rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalarni talab etadi. Umuman, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos kelishi tasdiqlandi va akkreditatsiya talablari bo'yicha muvofiq deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

